

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA
XODIMLARI MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH
MARKAZI ANDIJON FILIALI**

« TASDIQLAYMAN »

Respublika o'rta tibbiyot va
farmatsevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
filiali Andijon filiali direktori

G.A. Turaxodjayeva

« 8 » yanvar 2025 y.

**TINGLOVCHILARNING KASBIY BILIM VA KO'NIKMALARINI
BAHOLASH TO'G'RSIDA**

TARTIB

Mazkur ichki tartib O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4310-sonli va 2020-yil 7-apreldagi "Tibbiy sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2020-yil 15-iyun "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 160-sonli buyrug'ining O'zbekiston Respublikasi o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialida ijrosini ta'minlash maqsadida mazkur buyruqqa ilova qilingan "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi "Tartib" asosida ishlab chiqildi.

1-bob. Umumiy qoidalar

Mazkur ichki tartib O'zbekiston Respublikasi o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali tinglovchilarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash tartibini belgilaydi.

Tinglovchilarni baholashdan maqsad ularning malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida olgan bilimi, shakllangan ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarini rejalashtirilgan o'quv natijalariga muvofiqligini ta'minlash, ulardan kasbiy

faoliyat masalalarini hal qilishda foydalanish orqali aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashdan iborat.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi boshida tinglovchilar ularning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish tartibi va qoidalari bilan tanishtirilishi lozim

2-bob. Malaka oshirish kurslarida o'tkaziladigan nazorat turlari

O'zbekiston Respublikasi o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali tinglovchilarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining davlat talablariga muvofiqligini aniqlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

Umumiy malaka oshirish kurslarida – boshlang'ich nazorat (kirish testi); oraliq nazorat; yakuniy attestatsiya.

Mavzuli malaka oshirishda -72 kreditdan ko'p bo'lgan kurslarda boshlang'ich nazorat + yakuniy sinov (zachot); 72 kreditdan kam bo'lgan kurslarda sinov (zachot).

Boshlang'ich nazorat (kirish testi) – o'qish boshlanishidan oldin tinglovchilarning tayanch bilimlarini aniqlash maqsadida o'qishning birinchi kunida malaka oshirish kursi mavzulari doirasida tayyorlangan nazorat savollari, test topshiriqlari asosida og'zaki so'rov yoki test sinovlari tarzida amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat – sikl davomida o'quv dasturining (bir necha mavzularni o'z ichiga olgan) moduli tugallangandan keyin tinglovchilarining bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baxolash usuli. Oraliq nazorat test, suxbat, vaziyatli masala yechish, yozma ish, amaliy ko'nikmalarni baxolash yoki ularni kombinatsiyalangan shakllarida o'tkaziladi, aniq ishlab chiqilgan baholash mezonlari bo'yicha baxolanadi va natijalari gurux jurnalida qayd etiladi.

Andijon filialida malaka oshirish kurslaridagi oraliq nazoratlar bir marotaba og'zaki so'rov shaklida o'tilgan mavzular asosida nazariy amaliy savollarni o'z ichiga olgan xolda 5 ta savoldan iborat biletlar yordamida amalga oshiriladi. Har bir to'g'ri javobga maksimal 20 balldan (%) beriladi, o'tish balli 60 ball (%). Oraliq nazoratdan o'tgan tinglovchilar nazoratning keyingi bosqichi Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladi.

Yakuniy attestatsiya (mavzuli malaka oshirish kurslarida sinov (zachot)) kurs yakunida mutaxassislik bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni tinglovchilar tomonidan takomillashtirish darajasini baxolash usuli. U tinglovchi tomonidan o'quv reja va dastur asosida o'qitilgan modullar bo'yicha egallagan

nazariy va amaliy bilimlar, olingan bilimlarni amaliy masalalarni hal qilishda qo'llash maxoratini aniqlash xamda o'qitish samaradorligini baxolashni ko'zda tutadi.

Tinglovchilar tasdiqlangan o'quv reja va dasturlarga muvofiq yakuniy attestatsiyadan o'tishlari, mavzuli malaka oshirish kurslarida sinov(zachot) topshirishlari shart.

Tinglovchi xar bir nazorat turi bo'yicha 100 ballik baxolash tizimida baxolanadi. Bunda, nazorat turlari bo'yicha saralash (o'tish) ko'rsatkichi 60 % etib belgilanadi

Tinglovchining bilim va ko'nikmalari quyidagi mezonlar bo'yicha baxolanadi:

O'zlashtirish	Baho	Tinglovchining bilim darajasi
87-100	5	Tinglovchi o'quv dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, chuqur va to'liq bilimga ega; Savollarga mantiqiy to'liq va izchil javob beradi; Javoblarda nazariyani amaliyot bilan chambarchas bog'laydi; Amaliy masalalarni xal etishda olgan bilimlarini fikrini xatosiz, to'g'ri asoslaydi; Amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi; Amaliy topshiriqlarni bajarishda kasbiy bilimni mukammal ko'rsata oladi; Vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, javoblarni asoslaydi; Noananaviy xolatlarda muammoni mustaqil va ijodiy yechadi.
76-86	4	Tinglovchi dastur doirasida to'liq bilimlarga ega, javobini xatosiz bayon etadi, savollarga mantiqiy to'g'ri javob beradi; Amaliy masalalarni xal yetishda olgan bilimlarini, xatosini o'z vatida to'g'rilaydi; Amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi; Amaliy topshiriqlarni bajarishda yetarli kasbiy bilimga egaligini ko'rsata oladi; Vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, javoblarni asoslaydi.
60-75	3	Tinglovchi dastur doirasida bilimga ega, savollarga to'g'ri javob beradi, lekin ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi; olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi;

		Amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi; Vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, biroq yoasoslashda qiynaladi.
60 dan kam	2	Tinglovchi dastur doirasidagi materialning asosiy qismini bilmaydi, savollar javob berishda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi; Javobini mantiqiy bayon etmaydi; olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olmaydi; Amaliy ko'nikmalarni bajarishda xatoliklarga yo'l qo'yadi; Vaziyatli masalalarni yechishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yadi.

3-bob. Malaka oshirish kurslarida yakuniy attestatsiyani o'tkazish shakli va baxolash mezonlari

Umumiy malaka oshirish kurslarida Yakuniy attestatsiyaga Oraliq nazoratdan o'tgan tinglovchilar kiritiladi. Nazoratning ushbu turi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

-Test sinovi;

-Amaliy ko'nikmani baxolash bosqichlarida amalga oshiriladi

-Yakuniy suhbat (Imtixon)

Test sinovi – malaka oshirish o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan test banki asosida o'tkaziladi. Test sinovi natijalari quyidagicha baxolanadi: to'plangan to'g'ri javoblar xajmi umumiy test topshirig'ining 60 % va undan ortiqni tashkil etganda "O'tdi", 59% va undan kam natijaga erishilganda — "O'tmadi" deb baxolanadi. Tinglovchining tayanch bilimlarini aniqlash va yakuniy test sinovini o'tkazish uchun mazkur malaka oshirish kursi dasturi doirasida tuzilgan bir xil test topshiriqlari bankidan foydalaniladi. Tinglovchiga test topshiriqlari bankidan 50 tadan kam bo'lmagan xajmda test topshiriqlari beriladi. Har bir to'g'ri javob 2 balldan baholanadi.

Yakuniy attestatsiyaning amaliy ko'nikmani baxolash bosqichiga test sinovidan o'tgan tinglovchilar qo'yiladi. Amaliy ko'nikmani baxolashda o'rta tibbiyot va farmasevtika kadrlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirishga qo'yilgan amaldagi Davlat talablari va malaka talablari doirasida tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim ko'nikmalar sinovdan o'tkaziladi. Baxolash natijalari "O'tdi" va "O'tmadi" deb belgilanadi.

Yakuniy suxbat shaklida tinglovchilarga har biri 5 ta savoldan iborat 2 ta vaziyatli masalali bilet beriladi. Vaziyatli masalalarni yechish natijasi mazkur vaziyatli masalada belgilangan savollarga berilgan to'g'ri javoblar soni asosida shakllantiriladi. Har bir savolga berilgan to'g'ri javoblar 10 balldan baholanadi. Nazoratning ushbu to'g'ri berilgan umumiy to'g'ri javoblar soni 7 ta (70%) va undan ortiq bo'lganda –“ o'tdi”, 6 ta va undan kam bo'lgan xollarda – “o'tmadi” sifatida baxolanadi.

Mavzuli malaka oshirish kursi yakuniy sinov (zachot) bilan yakunlanadi. Sinov (zachot) — suxbat + amaliy ko'nikmani baxolash, test + amaliy ko'nikmani baxolash kabi kombinatsiyalarda o'tkaziladi. Sinov (zachot) natijalari bo'yicha 60 % va undan ortiq ko'rsatgichga ega bo'lgan tinglovchi sinov (zachot) dan o'tdi deb xisoblanadi. Sinov (zachot)da amaliy ko'nikmalarini baxolash mazkur tartibga kiritilgan baxolash mezonlari asosida amalga oshiriladi. Sinov (zachot) kombinatsiyalangan, masalan, test+ amaliy ko'nikmani baxolash shaklida o'tkazilganda, test bo'yicha 60% va undan ortiq ko'rsatgichga erishgan, amaliy ko'nikma “o'tdi” deb baxolangan tinglovchi sinov (zachot) dan o'tdi deb hisoblanadi. Filialda mavzuli malaka kurslarida yakuniy sinov test + amaliy ko'nikmani baxolash kabi kombinatsiyalarda o'tkaziladi.

Nazorat turlari, Yakuniy attestatsiya va sinov (zachot) shakllari, ularni o'tkazish tartibi, baxolash mezonlari yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan xolda Ilmiy-pedagogik kengashda muxokama qilinadi, tasdiqlanadi va ishchi o'quv dasturlarida aniq ko'rsatiladi.

4-bob. Qayta tayyorlash kurslarida nazorat turlari, ularni o'tkazish tartibi va baxolash mezonlari

-Qayta tayyorlash kurslari tinglovchilarining bilim va ko'nikmalari 100 ballik tizimda quyidagi nazorat turlari bo'yicha amalga oshiriladi:

boshlang'ich nazorat (kirish testi);

oraliq nazorat(M1+M2) – 50 ball (50%);

yakuniy attestatsiya — 50 ball (50%).

Nazorat turi	Maksimal ball	Saralash ball
Oraliq nazorat	50	30
Yakuniy attestatsiya	50	30
Jami	100	60

Boshlang'ich nazorat (kirish testi) – o'qishning birinchi kuni og'zaki so'rov yoki test sinovlari tarzida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich nazorat-xar bir mutaxassislik boshlanishidan oldin tinglovchilarning shu mutaxassislik bo'yicha tayanch bilimlarini aniqlash maqsadida mutaxassislikning birinchi darsida ixtisoslik mavzulari doirasida tayyorlangan nazorat savollari asosida og'zaki so'rov tarzida amalga oshiriladi. Andijon filialda Boshlang'ich nazorat uchun 20 talik testlar tayyorlangan va shu asosda olinadi.

Oraliq nazorat –test, suxbat, vaziyatli masala yechish, yozma ish yoki ularni kombinasiyalangan shakllarida o'tkaziladi va natijalari gurux jurnalida qayd etiladi. O'zbekiston Respublikasi o'rta tibbiyot va farmasyevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialida ixtisoslashtirish kurslarida oraliq nazoratlar bir necha moduldan so'ng og'zaki so'rov shaklida nazariy amaliy savollarni o'z ichiga olgan xolda 5 ta savoldan iborat biletlar yordamida amalga oshiriladi. Har bir mutaxassislik asosiy fanlari bo'yicha oraliq nazorat olinadi. Oraliq nazorat quyidagicha baxolanadi; Har bir savolga to'g'ri javob berganda 10 balldan baholanadi. 50-40 ball-5, 30-40 ball-4, 20-30 ball- 3, 10-20 ball-2 .Oraliq nazoratdan o'tgan tinglovchilar nazoratning keyingi bosqichi Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladi.

Yakuniy attestatsiya uchun ajratilgan 50 ball quyidagicha taqsimlanadi:

1-Test sinovi – 20 ball;

2-Amaliy ko'nikmani baxolash – o'tdi/o'tmadi

3-Yakuniy suhbat (vaziyatli masalalarni yechish) – 30 ball.

Qayta tayyorlash kurslarida tinglovchilarning kurs bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$YAB = ON(0,5) + T(0,2) + AK(o'tdi/o'tmadi) + YAS (0,3)$$

Bu yerda , YAB – Yakuniy baxo; ON- oraliq nazorat; AK- amaliy ko'nikma: YAS – Yakuniy suxbat.

Test sinovi –qayta tayyorlash mutaxassisliklari bo'yicha ishlab chiqilgan test banki asosida o'tkaziladi. Saralash ball 60 % ni tashkil etadi. Tinglovchiga test topshiriqlari bankidan 20 tadan kam bo'lmagan xajmda test savollari beriladi. Test sinovidan o'tgan tinglovchilar Yakuniy attestatsiyaning amaliy ko'nikmani baxolash bosqichiga qo'yiladi.

Amaliy ko'nikmani egallash darajasini baxolashda o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirishga qo'yiladigan amaldagi Davlat talabi va malaka talablari doirasida tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim ko'nikmalar sinovdan o'tkaziladi. Baxolash natijalari "o'tdi" va "o'tmadi" sifatida belgilanadi. Amaliy ko'nikmalarni bajarish algoritmi bo'yicha biron bir qadamni noto'ri bajargan yoki bajarmagan tinglovchi Yakuniy attestatsiyaning mazkur boqsichidan "o'tmagan" deb xisoblanadi va keyingi yakuniy suxbat bosqichiga kiritilmaydi.

Yakuniy suxbat bosqichida tinglovchiga xar biri 3 ta savoldan iborat 2 ta vaziyatli, masala beriladi. Vaziyatli masalalarni yechish natijasi mazkur vaziyatli masalada belgilangan savollarga berilgan to'g'ri javoblar soni asosida shakllantiriladi. Xar bir to'g'ri javob 5 balldan, 6 ta to'g'ri javob 30 %ni beradi "o'tdi", to'g'ri javoblar soni 4 tadan kam bo'lsa "o'tmadi" deb baxolanadi. saralash balli 20 ball.

Tinglovchining bilim va ko'nikmalarini baxolash mazkur ichki Tartibda nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida amaliy ko'nikmalar va yakuniy suxbat bosqichlari hay'at a'zolari tomonidan baxolash to'ldirish orqali amalga oshiriladi.

Yakuniy attestatsiya (sinov (zachot)) qaydnomasi sikl tugagach bir nusxada, to'ldiriladi, imzolanadi va bir kun muddat ichida o'quv bo'limiga topshiriladi.

5-bob. Yakuniy attestatsiyani o'tkazish tartibi

Yakuniy attestatsiyani o'tkazish tartibi va muddati amaldagi qonunchilik, mazkur tartib, malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv dasturlari mazmuni va o'quv rejasi asosida belgilanadi. Yakuniy attestatsiyaga o'quv dasturini to'liq o'zlashtirgan, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida oraliq nazoratdan 60% va undan ortiq ball olgan tinglovchi qo'yiladi.

Yakuniy attestatsiya malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi oxirida yakuniy attestatsiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

Tinglovchilar yakuniy attestatsiyasini o'tkazuvchi komissiya a'zolari yig'ilishi qarori va direktor buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Yakuniy attestatsiya komissiyasi tarkibiga filialning tajribali o'qituvchilari, davolash – profilaktika muassasalarining tegishli soha bo'yicha tajribali yetakchi mutaxassisleri kiritiladi.

Yakuniy attestatsiya komissiyasini hay'at raisi boshqaradi va barcha tinglovchilarga qo'yilgan talablarni bir xilda bajarilishini ta'minlaydi.

Yakuniy attestatsiya komissiyasi o'z ish faoliyatida malaka talablari, ta'lim sharoitlari mazmuni va ushbu tartibga asoslangan holda ish olib boradi.

Yakuniy attestatsiya komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Tinglovchilarning bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirganlik darajasini egallab turgan lavozimi va mutaxassisligi bo'yicha davlat talablariga mosligini aniqlash;
- Yakuniy attestatsiya natijalari asosida tinglovchiga kreditlar ko'rsatilgan holda to'liq o'quv reja va dasturni o'zlashtirganligi to'g'risida Davlat namunasidagi sertifikat berish qarorini qabul qilish;
- Yakuniy attestatsiya natijalarini tahlil qilish va o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Yakuniy attestatsiya komissiyasining qarori uning raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomada Yakuniy attestatsiyadan nuvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilar ro'yxati, uzrli sabablarga ko'ra tinglovchilar safidan chiqarilganlar ro'yxati, uzrsiz sabablarga ko'ra tinglovchilar safidan chiqarilganlar bo'yicha tegishli qarorlar o'z aksini topadi.

Yakuniy attestatsiyaga kelmagan tinglovchi (sababining uzrliligi tegishli hujjat bilan tasdiqlanmagan holda) sababsiz qatnashmagan hisoblanadi va attestatsiya natijasi "o'tmadi" sifatida baholanadi. Yakuniy attestatsiyada qatnashmaslik sababini uzrli ekanligini tasdiqlovchi hujjat 3 kunlik muddatda o'quv bo'limiga taqdim etilishi lozim.

Yakuniy attestatsiya natijalaridan norozi bo'lgan tinglovchi bir kun ichida ariza bilan natijani qayta ko'rib chiqish xususida murojaat qilish huquqiga ega. Bunda filial Apellyatsiya komissiyasi holatni tinglovchi ishtirokida o'z vaqtida o'rganadi va har bir javob sharhlanib yakuniy qaror qabul qilinadi.

Yakuniy attestatsiya natijalari va o'quv jarayonini yaxshilash bo'yicha takliflar malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi yakunlanganidan so'ng filial yig'ilishlarida muhokama qilinadi va tegishli choralar ko'riladi.

6-bob. Qoldirilgan mashg'ulotlar va nazorat turlarini qayta topshirish tartibi

Malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi uchun ajratilgan umumiy soatning 12 % gacha bo'lgan hajmi doirasida mashg'ulotlarda qatnashmagan tinglovchilarga qoldirilgan mashg'ulotlarni qayta topshirishga nazoratning keyingi turigacha bo'lgan muddatda ruxsat beriladi. Uzrsiz sabablar bilan malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi uchun ajratilgan umumiy soatning 12 % dan ortiq hajmini qoldirgan tinglovchilar direktor buyrug'i bilan tinglovchilar safidan chetlashtiriladi.

Oraliq nazoratdan "o'tmadi" deb baholangan tinglovchiga direktor ruxsati bilan Yakuniy attestatsiya gacha bo'lgan muddatda qayta topshirishga imkoniyat beriladi. Oraliq nazoratni belgilangan muddatda qayta topshirmagan tinglovchilar Yakuniy attestatsiyaga qo'yilmaydi va direktor buyrug'i bilan tinglovchilar safidan chiqariladi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o'qish yakunlari bo'yicha yakuniy nazoratdan o'tmagan yoki unga kelmagan tinglovchiga ruxsatnoma asosida qayta topshirish uchun bir marta bir oygacha bo'lgan muddatda imkoniyat beriladi. Ushbu inkoniyatdan foydalana olmagan tinglovchi Yakuniy attestatsiyadan o'tmagan hisoblanadi.

Malaka oshirish yoki qayta tayyorlash kursi dasturini to'liq o'zlashtirgan va Yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilarga Davlat namunasidagi hujjat (sertifikat) beriladi.

Tinglovchilar safidan chiqarilgan yoki Yakuniy attestatsiyani qayta topshirishdan o'tmagan tinglovchilarga direktor buyrug'i bilan o'qishining kalendar muddati ko'rsatilgan ma'lumotnoma beriladi, shuningdek bu haqda uni malaka oshirishga yuborgan buyurtmachiga xabar beriladi. Ma'lumotnoma o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimning unda ko'rsatilgan vaqtda o'quv jarayonida ishtirok etganligini tasdiqlaydi, biroq mazkur shaxsga vakant o'rinlarni egallash uchun asos bo'la olmaydi va keyinchalik malaka toifasi attestatsiyasidan o'tish uchun zarur kreditlarni to'plashda hisobga olinmaydi.


7-bob. Yakuniy qoidalar


O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni salash vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi tinglovchilarni attestatsiya natijalarining xolisligini tekshirishni tashkil etadi va nazorat qiladi.

Ushbu Tartibda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal etiladi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA
XODIMLARI MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH
MARKAZI ANDIJON FILIALI**

« TASDIQLAYMAN »

Respublika o'rta tibbiyot va
farmatsevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
filiali Andijon filiali direktori
G.A. Furaxodjayeva 
« 17 » yanvar 2026 y.



**TINGLOVCHILARNING KASBIY BILIM VA KO'NIKMALARINI
BAHOLASH TO'G'RSIDA**

TARTIB

Mazkur ichki tartib O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4310-sonli va 2020-yil 7-apreldagi "Tibbiy sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2020-yil 15-iyun "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 160-sonli buyrug'ining O'zbekiston Respublikasi o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialida ijrosini ta'minlash maqsadida mazkur buyruqqa ilova qilingan "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baxolash to'g'risidagi "Tartib" asosida ishlab chiqildi.

1-bob. Umumiy qoidalar

Mazkur ichki tartib O'zbekiston Respublikasi o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali tinglovchilarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash tartibini belgilaydi.

Tinglovchilarni baxolashdan maqsad ularning malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida olgan bilimi, shakllangan ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarini rejalashtirilgan o'quv natijalariga muvofiqligini ta'minlash, ulardan kasbiy

faoliyat masalalarini hal qilishda foydalanish orqali aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashdan iborat.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi boshida tinglovchilar ularning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish tartibi va qoidalari bilan tanishtirilishi lozim

2-bob. Malaka oshirish kurslarida o'tkaziladigan nazorat turlari

O'zbekiston Respublikasi o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali tinglovchilarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining davlat talablariga muvofiqligini aniqlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

Umumiy malaka oshirish kurslarida – boshlang'ich nazorat (kirish testi); oraliq nazorat; yakuniy attestatsiya.

Mavzuli malaka oshirishda -72 kreditdan ko'p bo'lgan kurslarda boshlang'ich nazorat + yakuniy sinov (zachot); 72 kreditdan kam bo'lgan kurslarda sinov (zachot).

Boshlang'ich nazorat (kirish testi) – o'qish boshlanishidan oldin tinglovchilarning tayanch bilimlarini aniqlash maqsadida o'qishning birinchi kunida malaka oshirish kursi mavzulari doirasida tayyorlangan nazorat savollari, test topshiriqlari asosida og'zaki so'rov yoki test sinovlari tarzida amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat – sikl davomida o'quv dasturining (bir necha mavzularni o'z ichiga olgan) moduli tugallangandan keyin tinglovchilarining bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baxolash usuli. Oraliq nazorat test, suxbat, vaziyatli masala yechish, yozma ish, amaliy ko'nikmalarni baxolash yoki ularni kombinasiyalangan shakllarida o'tkaziladi, aniq ishlab chiqilgan baholash mezonlari bo'yicha baxolanadi va natijalari gurux jurnalida qayd etiladi.

Andijon filialida malaka oshirish kurslaridagi oraliq nazoratlar bir marotaba og'zaki so'rov shaklida o'tilgan mavzular asosida nazariy amaliy savollarni o'z ichiga olgan xolda 5 ta savoldan iborat biletlar yordamida amalga oshiriladi. Har bir to'g'ri javobga maksimal 20 balldan (%) beriladi, o'tish balli 60 ball (%). Oraliq nazoratdan o'tgan tinglovchilar nazoratning keyingi bosqichi Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladi.

Yakuniy attestatsiya (mavzuli malaka oshirish kurslarida sinov (zachot)) kurs yakunida mutaxassislik bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni tinglovchilar tomonidan takomillashtirish darajasini baxolash usuli. U tinglovchi tomonidan o'quv reja va dastur asosida o'qitilgan modullar bo'yicha egallagan

nazariy va amaliy bilimlar, olingan bilimlarni amaliy masalalarni hal qilishda qo'llash maxoratini aniqlash xamda o'qitish samaradorligini baxolashni ko'zda tutadi.

Tinglovchilar tasdiqlangan o'quv reja va dasturlarga muvofiq yakuniy attestatsiyadan o'tishlari, mavzuli malaka oshirish kurslarida sinov(zachot) topshirishlari shart.

Tinglovchi xar bir nazorat turi bo'yicha 100 ballik baxolash tizimida baxolanadi. Bunda, nazorat turlari bo'yicha saralash (o'tish) ko'rsatkichi 60 % etib belgilanadi .

Tinglovchining bilim va ko'nikmalari quyidagi mezonlar bo'yicha baxolanadi:

O'zlashtirish	Baho	Tinglovchining bilim darajasi
87-100	5	Tinglovchi o'quv dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, chuqur va to'liq bilimga ega; Savollarga mantiqiy to'liq va izchil javob beradi; Javoblarida nazariyani amaliyot bilan chambarchas bog'laydi; Amaliy masalalarni xal etishda olgan bilimlarini fikrini xatosiz, to'g'ri asoslaydi; Amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi; Amaliy topshiriqlarni bajarishda kasbiy bilimini mukammal ko'rsata oladi; Vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, javoblarni asoslaydi; Noananaviy xolatlarda muammoni mustaqil va ijodiy yechadi.
76-86	4	Tinglovchi dastur doirasida to'liq bilimlarga ega, javobini xatosiz bayon etadi, savollarga mantiqiy to'g'ri javob beradi; Amaliy masalalarni xal yetishda olgan bilimlarini, xatosini o'z vatida to'g'rilaydi; Amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi; Amaliy topshiriqlarni bajarishda yetarli kasbiy bilimga egaligini ko'rsata oladi; Vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, javoblarni asoslaydi.
60-75	3	Tinglovchi dastur doirasida bilimga ega, savollarga to'g'ri javob beradi, lekin ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi; olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi;

		Amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi; Vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, biroq yoasoslashda qiynaladi.
60 dan kam	2	Tinglovchi dastur doirasidagi materialning asosiy qismini bilmaydi, savollar javob berishda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi; Javobini mantiqiy bayon etmaydi; olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olmaydi; Amaliy ko'nikmalarni bajarishda xatoliklarga yo'l qo'yadi; Vaziyatli masalalarni yechishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yadi.

3-bob. Malaka oshirish kurslarida yakuniy attestatsiyani o'tkazish shakli va baxolash mezonlari

Umumiy malaka oshirish kurslarida Yakuniy attestatsiyaga Oraliq nazoratdan o'tgan tinglovchilar kiritiladi. Nazoratning ushbu turi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

-Test sinovi;

-Amaliy ko'nikmani baxolash bosqichlarida amalga oshiriladi

-Yakuniy suhbat (Imtixon)

Test sinovi – malaka oshirish o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan test banki asosida o'tkaziladi. Test sinovi natijalari quyidagicha baxolanadi: to'plangan to'g'ri javoblar xajmi umumiy test topshirig'ining 60 % va undan ortiqni tashkil etganda "O'tdi", 59% va undan kam natijaga erishilganda — "O'tmadi" deb baxolanadi. Tinglovchining tayanch bilimlarini aniqlash va yakuniy test sinovini o'tkazish uchun mazkur malaka oshirish kursi dasturi doirasida tuzilgan bir xil test topshiriqlari bankidan foydalaniladi. Tinglovchiga test topshiriqlari bankidan 50 tadan kam bo'lmagan xajmda test topshiriqlari beriladi. Har bir to'g'ri javob 2 balldan baholanadi.

Yakuniy attestatsiyaning amaliy ko'nikmani baxolash bosqichiga test sinovidan o'tgan tinglovchilar qo'yiladi. Amaliy ko'nikmani baxolashda o'rta tibbiyot va farmasevtika kadrlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirishga qo'yilgan amaldagi Davlat talablari va malaka talablari doirasida tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim ko'nikmalar sinovdan o'tkaziladi. Baxolash natijalari "O'tdi" va "O'tmadi" deb belgilanadi.

Yakuniy suxbat shaklida tinglovchilarga xar biri 5 ta savoldan iborat 2 ta vaziyatli masalali bilet beriladi. Vaziyatli masalalarni yechish natijasi mazkur vaziyatli masalada belgilangan savollarga berilgan to'g'ri javoblar soni asosida shakllantiriladi. Har bir savolga berilgan to'g'ri javoblar 10 balldan baholanadi. Nazoratning ushbu to'g'ri berilgan umumiy to'g'ri javoblar soni 7 ta. (70%) va undan ortiq bo'lganda –“ o'tdi”, 6 ta va undan kam bo'lgan xollarda – “o'tmadi” sifatida baxolanadi.

Mavzuli malaka oshirish kursi yakuniy sinov (zachot) bilan yakunlanadi. Sinov (zachot) — suxbat + amaliy ko'nikmani baxolash, test + amaliy ko'nikmani baxolash kabi kombinatsiyalarda o'tkaziladi. Sinov (zachot) natijalari bo'yicha 60 % va undan ortiq ko'rsatgichga ega bo'lgan tinglovchi sinov (zachot) dan o'tdi deb xisoblanadi. Sinov (zachot)da amaliy ko'nikmalarini baxolash mazkur tartibga kiritilgan baxolash mezonlari asosida amalga oshiriladi. Sinov (zachot) kombinatsiyalangan, masalan, test+ amaliy ko'nikmani baxolash shaklida o'tkazilganda, test bo'yicha 60% va undan ortiq ko'rsatgichga erishgan, amaliy ko'nikma “o'tdi” deb baxolangan tinglovchi sinov (zachot) dan o'tdi deb hisoblanadi. Filialda mavzuli malaka kurslarida yakuniy sinov test + amaliy ko'nikmani baxolash kabi kombinatsiyalarda o'tkaziladi.

Nazorat turlari, Yakuniy attestatsiya va sinov (zachot) shakllari, ularni o'tkazish tartibi, baxolash mezonlari yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan xolda Ilmiy-pedagogik kengashda muxokama qilinadi, tasdiqlanadi va ishchi o'quv dasturlarida aniq ko'rsatiladi.

4-bob. Qayta tayyorlash kurslarida nazorat turlari, ularni o'tkazish tartibi va baxolash mezonlari

-Qayta tayyorlash kurslari tinglovchilarining bilim va ko'nikmalari 100 ballik tizimda quyidagi nazorat turlari bo'yicha amalga oshiriladi:

boshlang'ich nazorat (kirish testi);

oralik nazorat(M1+M2) – 50 ball (50%);

yakuniy attestatsiya — 50 ball (50%).

Nazorat turi	Maksimal ball	Saralash ball
Oraliq nazorat	50	30
Yakuniy attestatsiya	50	30
Jami	100	60

Boshlang'ich nazorat (kirish testi) – o'qishning birinchi kuni og'zaki so'rov yoki test sinovlari tarzida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich nazorat-xar bir mutaxassislik boshlanishidan oldin tinglovchilarning shu mutaxassislik bo'yicha tayanch bilimlarini aniqlash maqsadida mutaxassislikning birinchi darsida ixtisoslik mavzulari doirasida tayyorlangan nazorat savollari asosida og'zaki so'rov tarzida amalga oshiriladi. Andijon filialda Boshlang'ich nazorat uchun 20 talik testlar tayyorlangan va shu asosda olinadi.

Oraliq nazorat –test, suxbat, vaziyatli masala yechish, yozma ish yoki ularni kombinasiyalangan shakllarida o'tkaziladi va natijalari gurux jurnalida qayd etiladi. O'zbekiston Respublikasi o'rta tibbiyot va farmasyevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filialida ixtisoslashtirish kurslarida oraliq nazoratlar bir necha moduldan so'ng og'zaki so'rov shaklida nazariy amaliy savollarni o'z ichiga olgan xolda 5 ta savoldan iborat biletlar yordamida amalga oshiriladi. Har bir mutaxassislik asosiy fanlari bo'yicha oraliq nazorat olinadi. Oraliq nazorat quyidagicha baxolanadi; Har bir savolga to'g'ri javob berganda 10 balldan baholanadi. 50-40 ball-5, 30-40 ball-4, 20-30 ball- 3, 10-20 ball-2 .Oraliq nazoratdan o'tgan tinglovchilar nazoratning keyingi bosqichi Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladi.

Yakuniy attestatsiya uchun ajratilgan 50 ball quyidagicha taqsimlanadi:

1-Test sinovi – 20 ball;

2-Amaliy ko'nikmani baxolash – o'tdi/o'tmadi

3-Yakuniy suhbat (vaziyatli masalalarni yechish) – 30 ball.

Qayta tayyorlash kurslarida tinglovchilarning kurs bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$YAB = ON(0,5) + T(0,2) + AK(o'tdi/o'tmadi) + YAS (0,3)$$

Bu yerda , YAB – Yakuniy baxo; ON- oraliq nazorat; AK- amaliy ko'nikma: YAS – Yakuniy suxbat.

Test sinovi –qayta tayyorlash mutaxassisliklari bo'yicha ishlab chiqilgan test banki asosida o'tkaziladi. Saralash ball 60 % ni tashkil etadi. Tinglovchiga test topshiriqlari bankidan 50 tadan kam bo'lmagan xajmda test savollari beriladi. Har bir to'g'ri javob 0.4 ball bilan baholanadi .Test sinovidan o'tgan tinglovchilar Yakuniy attestatsiyaning amaliy ko'nikmani baxolash bosqichiga qo'yiladi.

Amaliy ko'nikmani egallash darajasini baxolashda o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirishga qo'yiladigan amaldagi Davlat talabi va malaka talablari doirasida tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim ko'nikmalar sinovdan o'tkaziladi. Baxolash natijalari "o'tdi" va "o'tmadi" sifatida belgilanadi. Amaliy ko'nikmalarni bajarish algoritmi bo'yicha biron bir qadamni noto'g'ri bajargan yoki bajarmagan tinglovchi Yakuniy attestatsiyaning mazkur boqsichidan "o'tmagan" deb xisoblanadi va keyingi yakuniy suxbat bosqichiga kiritilmaydi.

Yakuniy suxbat bosqichida tinglovchiga har biri 3 ta savoldan iborat 2 ta vaziyatli masala beriladi. Vaziyatli masalalarni yechish natijasi mazkur vaziyatli masalada belgilangan savollarga berilgan to'g'ri javoblar soni asosida shakllantiriladi. Har bir to'g'ri javob 5 balldan, 6 ta to'g'ri javob 30 %ni beradi "o'tdi", to'g'ri javoblar soni 4 tadan kam bo'lsa "o'tmadi" deb baxolanadi, saralash balli 20 ball.

Tinglovchining bilim va ko'nikmalarini baxolash mazkur ichki Tartibda nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida amaliy ko'nikmalar va yakuniy suxbat bosqichlari hay'at a'zolari tomonidan baxolash to'ldirish orqali amalga oshiriladi.

Yakuniy attestatsiya (sinov (zachot)) qaydnomasi sikl tugagach bir nusxada to'ldiriladi, imzolanadi va bir kun muddat ichida o'quv bo'limiga topshiriladi.

5-bob. Yakuniy attestatsiyani o'tkazish tartibi

Yakuniy attestatsiyani o'tkazish tartibi va muddati amaldagi qonunchilik, mazkur tartib, malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv dasturlari mazmuni va o'quv rejasi asosida belgilanadi. Yakuniy attestatsiyaga o'quv dasturini to'liq o'zlashtirgan, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida oraliq nazoratdan 60% va undan ortiq ball olgan tinglovchi qo'yiladi.

Yakuniy attestatsiya malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi oxirida yakuniy attestatsiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

Tinglovchilar yakuniy attestatsiyasini o'tkazuvchi komissiya a'zolari yig'ilishi qarori va direktor buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Yakuniy attestatsiya komissiyasi tarkibiga filialning tajribali o'qituvchilari, davolash – profilaktika muassasalarining tegishli soha bo'yicha tajribali yetakchi mutaxassislari kiritiladi.

Yakuniy attestatsiya komissiyasini hay'at raisi boshqaradi va barcha tinglovchilarga qo'yilgan talablarni bir xilda bajarilishini ta'minlaydi.

Yakuniy attestatsiya komissiyasi o'z ish faoliyatida malaka talablari, ta'lim dasturlari mazmuni va ushbu tartibga asoslangan holda ish olib boradi.

Yakuniy attestatsiya komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Tinglovchilarning bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirganlik darajasini egallab turgan lavozimi va mutaxassisligi bo'yicha davlat talablariga mosligini aniqlash;
- Yakuniy attestatsiya natijalari asosida tinglovchiga kreditlar ko'rsatilgan holda to'liq o'quv reja va dasturni o'zlashtirganligi to'g'risida Davlat namunasidagi sertifikat berish qarorini qabul qilish;
- Yakuniy attestatsiya natijalarini tahlil qilish va o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Yakuniy attestatsiya komissiyasining qarori uning raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomada Yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilar ro'yxati, uzrli sabablarga ko'ra tinglovchilar safidan chiqarilganlar ro'yxati, uzrsiz sabablarga ko'ra tinglovchilar safidan chiqarilganlar bo'yicha tegishli qarorlar o'z aksini topadi.

Yakuniy attestatsiyaga kelmagan tinglovchi (sababining uzrliligi tegishli hujjat bilan tasdiqlanmagan holda) sababsiz qatnashmagan hisoblanadi va attestatsiya natijasi "o'tmadi" sifatida baholanadi. Yakuniy attestatsiyada qatnashmaslik sababini uzrli ekanligini tasdiqlovchi hujjat 3 kunlik muddatda o'quv bo'limiga taqdim etilishi lozim.

Yakuniy attestatsiya natijalaridan norozi bo'lgan tinglovchi bir kun ichida ariza bilan natijani qayta ko'rib chiqish xususida murojaat qilish huquqiga ega. Bunda filial Apellyasiya komissiyasi holatni tinglovchi ishtirokida o'z vaqtida o'rganadi va har bir javob sharhlanib yakuniy qaror qabul qilinadi.

Yakuniy attestatsiya natijalari va o'quv jarayonini yaxshilash bo'yicha takliflar malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi yakunlanganidan so'ng filial yig'ilishlarida muhokama qilinadi va tegishli choralar ko'riladi.

6-bob. Qoldirilgan mashg'ulotlar va nazorat turlarini qayta topshirish tartibi

Malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi uchun ajratilgan umumiy soatning 12 % gacha bo'lgan hajmi doirasida mashg'ulotlarda qatnashmagan tinglovchilarga qoldirilgan mashg'ulotlarni qayta topshirishga nazoratning keyingi turigacha bo'lgan muddatda ruxsat beriladi. Uzrsiz sabablar bilan malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi uchun ajratilgan umumiy soatning 12 % dan ortiq hajmini qoldirgan tinglovchilar direktor buyrug'i bilan tinglovchilar safidan chetlashtiriladi.

Oraliq nazoratdan "o'tmadi" deb baholangan tinglovchiga direktor ruxsati bilan Yakuniy attestatsiya gacha bo'lgan muddatda qayta topshirishga imkoniyat beriladi. Oraliq nazoratni belgilangan muddatda qayta topshirmagan tinglovchilar Yakuniy attestatsiyaga qo'yilmaydi va direktor buyrug'i bilan tinglovchilar safidan chiqariladi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o'qish yakunlari bo'yicha yakuniy nazoratdan o'tmagan yoki unga kelmagan tinglovchiga ruxsatnoma asosida qayta topshirish uchun bir marta bir oygacha bo'lgan muddatda imkoniyat beriladi. Ushbu inkoniyatdan foydalana olmagan tinglovchi Yakuniy attestatsiyadan o'tmagan hisoblanadi.

Malaka oshirish yoki qayta tayyorlash kursi dasturini to'liq o'zlashtirgan va Yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilarga Davlat namunasidagi hujjat (sertifikat) beriladi.

Tinglovchilar safidan chiqarilgan yoki Yakuniy attestatsiyani qayta topshirishdan o'tmagan tinglovchilarga direktor buyrug'i bilan o'qishining kalendar muddati ko'rsatilgan ma'lumotnoma beriladi, shuningdek bu haqda uni malaka oshirishga yuborgan buyurtmachiga xabar beriladi. Ma'lumotnoma o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimning unda ko'rsatilgan vaqtda o'quv jarayonida ishtirok etganligini tasdiqlaydi, biroq mazkur shaxsga vakant o'rinlarni egallash uchun asos bo'la olmaydi va keyinchalik malaka toifasi attestatsiyasidan o'tish uchun zarur kreditlarni to'plashda hisobga olinmaydi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni salash vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi tinglovchilarni attestatsiya natijalarining xolisligini tekshirishni tashkil etadi va nazorat qiladi.

Ushbu Tartibda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal etiladi.